



“HAR QANDAY YORDAM QONUNY BO‘LMOG‘I LOZIM”

INSON QADRI

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif qonuniyatlari asosida muvozanatda bo‘ladi. Tadbirkor ishida to‘siq bo‘ldimi, muammo tug‘ildimi bu, albatta, ana shu muvozanatga putur yetkazadi degani.

Tadbirkordan hol so‘rab, so‘z bersangiz, ularni-da qiynaydigan, ishiga to‘siq bo‘ladigan sabablari bo‘ladi. Ana shunday muammo va takliflarni tinglash, bartaraf etish maqsadida viloyat hokimi Ulug‘bek Qosimov o‘zining navbatdagi tadbirkorlar qabulini o‘tkazdi. Unda viloyat, shahar va tumanlar hokimlarining tegishli o‘rinbosarlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mutasaddi tashkilotlar rahbarlari hamda 43 nafar tadbirkor ishtirok etdi. Qabul davomida tadbirkorlarni qiynab kelayotgan muammolar, yangi loyihalar taklifi va tashabbuslarini o‘z ichiga olgan murojaatlar qabul qilindi.

Muzrabotlik “Movarounnahr” fermer xo‘jaligi rahbari Qurbon Almardonov parrandachilik bilan shug‘ullanadi. Aynonki, bu sohada natijaga erishish birmuncha mushkul. Parrandachilikning ham o‘ziga yarasha injiqliklari bor. Ayniqsa, doimiy ravishda elektr ta‘minotidagi uzilishlar sabab tadbirkor katta zarar ko‘rmoqda. Shu bois ham murojaatchi viloyat hokimidan elektr ta‘minotining uzluksiz ravishda ishlashida amaliy yordam so‘radi. Mas‘ullar bu borada ogohlantirilib, murojaat qondiriladigan

bo‘ldi.

Muammolarga quloq tutayotgan viloyat rahbari o‘z ishiga vijdonan yondashib, halol raqobat olib borayotganlarga yordam berish lozimligini ta‘kidlar ekan, har qanday yordam qonuniy bo‘lmog‘i kerakligini aytdi. To‘g‘ri-da, murojaatchilar orasida tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun tijorat bankidan kredit olib, 3 yildan buyon na kreditning asosiy qarzini va na foizini to‘lamasdan, olgan kredit muddatini uzaytirib yoki boshqa bankka o‘tkazib berishlarini so‘raydiganlar ham yo‘q emas. Holbuki, amaldagi qonunchilikka zid bo‘lgan bunday holatlarda ham fuqaroga kerakli tushuntirishlar berilib, inqiroz va muammodan chiqish yo‘llari ko‘rsatildi.

Denov tumanidan kelgan tadbirkor Abdurahmon Fayziyev tumanda transportlarga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. U rahbarlik qilayotgan “Fayz” MChJga qarashli bekat tumanning boshqaruviga kiritilib, buzilishga tushgan. Shu sababdan ham bekat tuman hokimligi mutasaddilari tomonidan to‘siq qo‘yilgan. Bekatning buzilishi ortidan 20 nafar ishchi ishsiz qoladi. Ushbu holat bo‘yicha tadbirkor munosib yechim so‘rab murojaat qildi.

Viloyat hokimi hududga borib, vaziyat bilan shaxsan tanishishini va albatta, yechim topishlarini aytdi.

Ushbu qabulda har kim o‘z chigalliklariga yechim izlab, umid bilan kelgan. Zero, ko‘ngil yorish ham oson ish emas. Birma-bir muammosini aytib, qabuldan yorug‘ yuz bilan ketayotgan tadbirkorlarning mamnunligini sezish qiyin emas. Ular qatorida Salohiddin Azimov ham bor. U bog‘cha ochish uchun 2021-yilda Denov tuman hokimining qabul qilingan qarori asosida “Shamoli” mahallasi hududidan 2-sonli DMT tashkilotining 0,2 gektar yer maydonini olgan edi. Afsuski, ushbu yerni tuman maktabgacha ta‘lim bo‘limi noqonuniy berilganini ro‘kach qilib olib qo‘ymoqchi. Tadbirkorning esa murojaat yo‘llab, bosh suqmagan davlat tashkiloti qolmagan. Ming sarson-sargardonchilik esa bir insonning davlatdan, boshqaruvdan ishonchini so‘ndirmaydimi, hafsalasini pir qilmaydimi? Axir, ishlayman, naf keltiraman deganga imkon va imtiyoz berish kerak emasmi? Shu maqsadda viloyat hokimi viloyat maktabgacha ta‘lim boshqarmasi boshlig‘iga topshiriq berib, masalani hal etishni, tadbirkorni

qo‘llab-quvvatlash kerakligini aytdi. Tadbirkor Salohiddin Azimovning avvalgi ikkilanishidan darak



ajratishlarini so‘rab murojaat qildim. Murojaatim yechim topib, menga subsidiya ajratilishidan xursandman. Qo‘llarim sog‘, hunarim bilan o‘zim va o‘zgalarga-da, foyda keltira olishimni o‘ylashning o‘zi kishini hayajonlantiradi.

Tadbirkorlar tomonidan bildirilgan murojaatlarning ayrimlari shu yerning o‘zida ijobiy hal etildi. Bir nechta murojaatga huquqiy tushuntirishlar berildi. Shuningdek, yechimi ma‘lum vaqt talab etadigan masalalar aniq ijro muddati bilan mas‘ullarga yo‘naltirilib, batafsil o‘rganib chiqish va hal etish bo‘yicha vazifalar yuklatildi. Hech bir murojaat e‘tibordan chetda qolmadi. Hokim ularning ijrosi qat‘iy nazorat ostida bo‘lishi, mas‘ullardan ijro uchun yo‘naltirilgan murojaatlarni batafsil o‘rganib, tadbirkorlarning muammolarini hal etishga mas‘uliyat bilan yondashishni so‘radi.

Sayyora ALLAYEVA,
Naimullo MUHIBULLOYEV
(surat)

SHUNDAY MARKAZ BOR...



HUNAR BILGAN XOR BO‘LMAYDI

“Ishga marhamat” Monomarkazi tashkil etilgan edi. Bugungi kunda ushbu monomarkazda 30 ta yo‘nalishda fuqarolar kasb-hunarga o‘qitilmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Surxondaryo viloyat filiali tashabbusi bilan uyushtirilgan press-turda

tushgan 2010 ta murojaatning 1199 nafari (60 foiz) xotin-qizlardir. Murojaat qilganlarning 1074 nafari (63 foiz)ni yoshlar tashkil etgan.

— Hozirgi kunga qadar 26 ta yo‘nalish bo‘yicha 1 506 nafar tinglovchi o‘zlari qiziqqan yo‘nalish bo‘yicha

kasb-hunar egallab, sertifikat olishdi. Eng ahamiyatlisi, shuning 938 nafari ayollardir. 29 nafar “Ayollar daftari”da turuvchi tinglovchilardan, enaga tarbiyachi yordamchisi, sartaroshlik, kosmetolog, tikuvchilik, oshpazlik, qandolatchilik yo‘nalishlarida kasbga o‘qitilgan bo‘lsa, 34 nafar “Ishga marhamat”da turuvchi tinglovchilardan jami 721 nafarining bandligi ta‘minlangan. Ayni paytda Angor tuman “Ishga marhamat” monomarkazida 369 nafar tinglovchi 21 ta yo‘nalish bo‘yicha tahsil olmoqda. Ushbu markazda

Aholini bandlikka ko‘maklashish markazi yo‘llanmasi orqali va shartnoma asosida o‘qish mumkin. Bundan tashqari, joriy yilda 70 nafar imkoniyati cheklangan tinglovchilar murojaat qilgan bo‘lib, 2022-yil davomida 57 nafari tikuvchilik, 26 nafari elektrik, bir nafari qandolatchi, 3 nafari suvoqchi-bo‘yoqchi, 1 nafari santexnik, 8 nafari kosmetolog, bir nafari enaga tarbiyachi yordamchisi va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qib sertifikatga ega bo‘lishgan. Shularning 33 nafari so‘zlashuvda nuqsoni bor (karsoqov) tinglovchilardir.

2022-yil davomida xorijiy mutaxassislarining monomarkazga jalb qilinganligi, albatta, quvonarli. Xorijiy mutaxassislar mahorat darslari o‘tish bilan birgalikda yapon tilini o‘rgatishda kasbiy malaka bo‘yicha guruhlar tashkil etishda ko‘maklashishgan. Turk mutaxassislari Ahmed Yag‘chi hamda Atilla Sozer ayollar sartaroshi hamda oshpazlik, qandolatchilik yo‘nalishida ayollarga kasb-hunarlar o‘rgatishdi.

“Ishga marhamat” monomarkazida tinglovchilar uchun qulay shart-sharoit yaratilgan. Xonalar shinam va ozoda. Barcha sohalar bo‘yicha xonalar dastgohlar va jihozlar bilan ta‘minlangan. Ushbu markazda tahsil olgan tinglovchilar bugungi kunda o‘z shaxsiy bizneslarini yo‘lga qo‘yib, ijobiy natijalarga erishmoqda.

Angor tumanidagi “O‘zbekiston” MFY da yashovchi

Sherzod Kattayev 2022-yil sentyabr oyida sertifikat olgan edi. U bugungi kunda o‘z mahallasida ustaxona ochib, avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatmoqda. Va, natijada to‘rtta yangi ish o‘rni yaratdi. Angor tumanidagi ushbu mahallaning yana bir fuqarosi, II guruh nogironi Poyonbek Choriyev tikuvchilik sexi ochib, o‘zining bandligini ta‘minlagan.

Angor tumanidagi “Yangiobod” MFY fuqarosi Bozor O‘roqov garchi 54 yoshda bo‘lsa-da, ushbu markazda yapon tilini o‘rganib, kelgusida Yaponiya davlatida qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat ko‘rsatmoqchiligini ta‘kidlaydi. Monomarkazda bugungi kunda Sherobod, Jarqo‘rg‘on, Qiziriq, Angor, Qumqo‘rg‘on, Muzrabot, Bandixon, Boysun, Oltinsoy, Termiz tumani va shahardan tinglovchilar kasb-hunar o‘rganishmoqda.

Press-turning navbatdagi tadbiri Termiz shahridagi Arxitektura va qurilish texnikumida tashkil etilgan “Qurilish sohasida malakali xodimlarni tayyorlash markazi”da bo‘lib o‘tdi. Bu yerda texnikum tasarrufida o‘nlab yoshlar qurilishning sir-asrorlarini puxta o‘rganib, kelajakda o‘zlari qiziqqan sohada mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishmoqchi. Eng muhimi, jurnalist va blogerlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

X.TOG‘AYMURODOV,
Islom MENGLIYEV
(surat)

Kun sayin taraqqiy etayotgan yurtimiz bugungi kunda yetarlicha ish kuchiga ega deb ayta olamiz. Mustaqillikning dastlabki yillarida chet ellarga ish izlab ketgan ko‘plab o‘zbek farzandlari aniq bir kasb yoki hunarga ega bo‘lmaganligi sababli ham ish topa olmay qiynalishganligi bor gap.



Ish topishsa ham eng og‘ir, ish haqi kafolatlanmagan, shaxsiy xavfsizligi va haq-huquqlari himoyalangan sharoitlarda ishlashdi. Axir, qo‘lida aniq bir kasbi bo‘lmagach, odam har qanday og‘ir ishga ham rozi bo‘lishi tayin-da. Buyoqda oila, ro‘zg‘or, farzandlar va ularning istiqboli turganda har qanday oila boshlig‘i shunday ish tartibiga rozi bo‘lmagan iloji yo‘q. Eng yomoni, bunday noqonuniy obyektlarda ishlash va yashash mutlaqo sanitariya talabiga javob bermaydi; texnika xavfsizligi kafolatlanmagan.

Shukrlar bo‘lsinki, bugungi kunda davlatimiz tomonidan

xorijiy davlatlarda ishlayotgan vatandoshlarimizning holidan xabar olinib, ularning shaxsiy xavfsizligini ta‘minlash borasida ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolarimizni kasbga o‘rgatish maqsadida o‘quv kurslari tashkil etilgan. Jumladan, Prezidentimizning 2020-yil 11-avgustdagi “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan 2021-yil iyun oyida Angor tumanida

jurnalist va blogerlar viloyatimizda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqib ketayotgan shaxslarni kasbga va chet tillariga o‘qitish bo‘yicha Angor tumanidagi “Ishga marhamat” monomarkazi va Termiz shahridagi Arxitektura va qurilish texnikumida tashkil etilgan qurilish sohasida malakali xodimlarni tayyorlash markazida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishishdi.

Monomarkazga murojaat qiluvchi fuqarolar monomarkazning axborot almashtiruvchi xodimlari tomonidan ro‘yxatga olinib, ular haqidagi ma‘lumotlar elektron bazaga kiritiladi. 2022-yil boshidan hozirgi kunga qadar kelib

“Yoshlar daftari”da turuvchi tinglovchilar ayollar sartaroshi, erkaklar sartaroshi, payvandlash ishlari ustasi, avtoelektrik, avtoservis xizmati ko‘rsatish, g‘isht teruvchi, buxgalter, dasturchi, “Temir daftar”da turuvchi tinglovchilardan ikki nafari sartaroshlik va tikuvchilik sohasi bo‘yicha mutaxassislikka ega bo‘lishdi, — deydi Angor “Ishga marhamat” monomarkazi direktori Jamshid O‘rokov.

2022-yilda bitirgan tinglovchilardan jami 721 nafarining bandligi ta‘minlangan. Ayni paytda Angor tuman “Ishga marhamat” monomarkazida 369 nafar tinglovchi 21 ta yo‘nalish bo‘yicha tahsil olmoqda. Ushbu markazda

SAKKIZ MUHIM TAMOYIL

Asliddin CHORIYEV,
Shohrux TURSUNOV,
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kursanti

Har qanday davlatning tarixi – bu, birinchi navbatda, unda yashaydigan xalqning tarixi, aholisining soni va tarkibi, uning iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarida o‘z ifodasini topadi. Aholi soni bo‘yicha aniq va yaxlit ma’lumotlar aholini ro‘yxatga olish asosida olinadi.

IS GAZIDAN OGHOHLIK

Respublikamizda kuz-qish mavsumida isitish pechlaridan noto‘g‘ri foydalanish va loqaydlik sabablariga ko‘ra aholi xonadonlarida is gazidan zaharlanish hamda gaz-havo aralashmasining chaqnashi holatlari ro‘y berib, insonlarning sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazilayotganligi, hatto eng achinarlisi, o‘lim bilan tugayotgan baxtsiz hodisalar sodir bo‘layotganligi o‘zining taqdirini shu yurt taqdiri bilan bog‘lagan har qanday insonni



EHTIYOT BO‘LING!

tashvishga soladi. O‘tgan yil davomida respublikamizda is gazidan ellikka yaqin hamyurtimiz hayotdan bevaqt ko‘z yumgan.

Bu yo‘nalishda rivojlangan ayrim davlatlarning tajribasini o‘rganishlar jarayonida is gazidan zaharlanishning oldini olish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi aniqlandi. Jumladan, AQShning Nyu-York, Kolorado, Kaliforniya shtatlarida is gazidan zaharlanishning oldini olish bo‘yicha maxsus qonunlar qabul qilingan. Birgina Kaliforniya shtatining 2010-yilda is gazidan zaharlanishni oldini olish to‘g‘risida qabul qilingan qonun talablariga ko‘ra, gaz va isitish moslamalari mavjud bo‘lgan har bir xonada is gazini aniqlovchi detektor (gazoanalizator)larni o‘rnatish majburiy ekanligi belgilangan.

Ayni paytda, barcha turdagi binolarda is gazini aniqlovchi detektorlarni o‘rnatish bo‘yicha tashviqot ishlari ham Buyuk Britaniya davlatida muntazam olib borilayotganligi kuzatildi.

Bundan tashqari, AQSh va Kanada davlatlarida markaziy isitish tizimidan voz kechilib, ko‘p qavatli uylarning yerto‘lalarida butun uyni isitib beradigan boylerlar (suvni isitadigan qurilmalar) o‘rnatilmoqda.

Yevropada ham individual isitish moslamasi — generatorlarni o‘rnatish keng rivojlangan. Mazkur amaliyot

AHOLINI RO‘YXATGA OLISH

Xalqaro tavsiyalarga ko‘ra, aholini ro‘yxatga olish quyidagi muhim tamoyillarga asoslanadi:

- 1. MARKAZLASHTIRISH.** Aholini ro‘yxatga olishni boshqarishning qat’iy markazlashtirilishi ushbu tadbirni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosiy shartlaridan biridir.
- 2. AHOLINI RO‘YXATGA OLISHNING MUNTAZAMLIGI.** BMT tavsiyalariga ko‘ra, aholini ro‘yxatga olish 10 yilda kamida bir marotaba o‘tkazilishi belgilangan.
- 3. AHOLINI RO‘YXATGA OLISH MAXSUS TAYYORLANGAN MUTAXASSISLAR – HISOBCHILAR TOMONIDAN O‘TKAZILISHI.** Mazkur tadbirni amalga oshirish uchun ko‘p miqdorda maxsus xodimlar yollanadi, ularning tarkibiga ziyolilar, talabalar ham kiritilishi mumkin.

4. AHOLINI RO‘YXATGA OLISHNI ANIQ BIR MUDDATDA O‘TKAZISH.

Bu tadbirni amalga oshirishga odatda 10–12 kun talab etiladi. Aholini ro‘yxatga olish bir necha kun davomida o‘tkazilsa ham, ma’lumotlar aniq bir vaqtda – ko‘pincha aholini ro‘yxatga olishning birinchi kunining dastlabki soatidagi holat bo‘yicha qayd etiladi. Bu aholini ro‘yxatga olishning nozik vaqti, deb ham ataladi. Masalan, chaqaloq aholini ro‘yxatga olish davrida, ammo ana shu aniq muddatdan keyin tug‘ilgan bo‘lsa, u aholi ro‘yxatiga kiritilmaydi. Lekin, kimdir bu aniq nozik muddatda hayot bo‘lib, shundan keyin, ya’ni aholini ro‘yxatga olish davrida vafot etsa, u aholi ro‘yxatiga kiritiladi.

5. AHOLINI RO‘YXATGA OLISHNING BELGILAB QO‘YILGAN ANIQ DASTURINING MAVJUDLIGI VA TADBIRNI UNGA QAT’IY RIOYA QILGAN HOLDA O‘TKAZISH.

Aholini ro‘yxatga olish dasturi – ro‘yxatga olishda muayyan talablarni hisobga olgan holda, aholiga murojaat qilinadigan savollar ro‘yxatini, ma’lumotlarni qayd etish, to‘plash, qayta ishlash, yakuniy ma’lumotlarni e’lon qilish tartiblarini o‘z ichiga oladi.

6. AHOLINING TO‘LIQ QAMRAB OLINISHI.

Aholini ro‘yxatga olishda kimdir unutilib qoldirilishi yoki ikki marta ro‘yxatga olinishi hollari uchrasa ham, mavjud aholining ro‘yxatdan joy olinishini ta’minlash asosiy vazifa hisoblanadi.

7. MA’LUMOTLARNING MAXFIYILIGI VA SHAXSIYLASH-TIRILISHI.

Aholini ro‘yxatga olishda individual asosda har bir shaxs to‘g‘risidagi yakka ma’lumotlar to‘planadi. Shu bilan birga, respondentlardan olingan ma’lumotlarning nomsizligi kafolatlanadi. Aholini ro‘yxatga olish varaqasidan faqat natijalarni umumlashtirish uchun foydalaniladi.

8. IXTIYORIYLIK.

Shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar so‘ralayotgan (respondent)ning javoblari (kichik yoshdagilar uchun – ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosadigan shaxslarning) asosida qayd qilinadi va buni hujjat bilan tasdiqlash talab etilmaydi.

O.BEGIMQULOV,

Jinoyat ishlari bo‘yicha Termiz tuman sudi raisi

Bolaning ongi va tafakkuri endigina shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, ta’lim jarayoniga yangicha metodikalarni mohirona tatbiq eta olishi, ta’limning yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi ortidan natijaga erishsa bo‘ladi. Denov tumanidagi 68-umumta’lim maktabida ham ustozlar havas qilarli darajada ish olib borishadi. Ularning faoliyati asnosida kelajak avlod ham ma’naviy, ham mafjuraviy jihatdan kamol topishmoqda. Maktabning 1-“G” sinf o‘quvchilari ishtirokida tashkil etilgan “Baxtli-bolalik” mavzusidagi tadbir ham ko‘tarinki ruhda kechdi. Unda o‘quvchilar Vatan, ona, maktab mavzularida mazmunli she‘rlar o‘qishdi, qo‘shiqlar va raqslar ijro etishdi.

R.TOSHBOYEVA,

Denov tumani 68-maktab o‘qituvchisi

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari sud hokimiyati mustaqilligini hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash bilan bir qatorda fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish imkonini berdi.

Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi

qonunga asoslanib, xolislikni saqlagan holda sifatli qo‘llab-quvvatlash;
— fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo‘li bilan samarali himoya qilinishiga erishish;
— sud amaliyotidan kelib chiqqan holda surishtiruv va tergov organlari xodimlarining amaliy ko‘nikmalari hamda malakasini oshirish ishlari ko‘maklashish.

Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi xodimlari o‘z vakolatlarini har qanday organ va mansabdor shaxsdan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo‘ysunib amalga oshiradi hamda qonunchilikda nazarda tutilgan hollardan tashqari ularning sudda ishtiroki bilan bog‘liq faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi;
— viloyat va unga tenglashtirilgan prokuraturalar Ixtisoslashgan prokurorlar korpusiga tuman (shahar) prokuraturalarining tegishli yo‘nalishlarida, qoida tariqasida, kamida uch yil, Bosh prokuratura Ixtisoslashgan prokurorlar korpusiga esa, qoida tariqasida, kamida besh yil faoliyat yuritgan xodimlar jalb qilinadi;

Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi xodimlari, qoida tariqasida, sudlarda prokuror vakolatini ta’minlash sohasida uzluksiz uch yil xizmat o‘taganidan so‘ng boshqa yo‘nalishlarga o‘tkazilishi mumkin;

Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi xodimlarini boshqa yo‘nalishlarga o‘tkazish Bosh prokuror sohaviy o‘rinbosarining roziligi asosida amalga oshiriladi. Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi faoliyatining natijadorligini ta’minlash maqsadida:

— Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi xodimi sudlarda ko‘rilayotgan ishlar bo‘yicha ayblovni (fuqaroviy da’voni) qo‘llab-quvvatlash, o‘zgartirish yoki undan voz kechish, shu jumladan Jinoyat kodeksi normalarini qo‘llash, jazo turi va me’yorini belgilash masalalari yuzasidan fikrini sudga bayon qilishda mustaqil bo‘lib, qonun talablariga va ishning barcha holatlaridan kelib chiqqan holda o‘z ishonchiga asoslanadi;

— har bir hududda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari hamda tegishli tuman (shahar) prokuraturalari Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi xodimlari va boshqa yo‘nalishlarda uzoq yillar faoliyat ko‘rsatgan tajribali xodimlardan iborat Maslahat kengashlari tashkil etiladi;

— Maslahat kengashlari o‘zaro muhokama asosida o‘ta murakkab toifadagi ishlarining yechimini topish, yosh kadrlarni to‘g‘ri yo‘naltirish va ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish ishlari ko‘maklashadi;

— Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlarining Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi faoliyati uchun mas’ul o‘rinbosarlariga tegishincha viloyat, tuman (shahar) prokuraturalari Ixtisoslashgan prokurorlar korpusi xodimlarini hududdagi viloyat, tumanlararo, tuman (shahar) sudlaridagi ish hajmini inobatga olgan holda ixtisosligi bo‘yicha jalb qilishga ruxsat beriladi.

S.XOLMATOV,

Viloyat ma’muriy sudi sudyasi



Hayot bu...

Hayot bu sahna. Biz bu sahnada ijrochilarmiz. Inson hayotida o‘z rolini mahorat ila ijro eta olmas ekan, mag‘lubiyatga uchraydi. Shu boiski, hammamiz turfa niqob ostidagi turli kimsalarmiz. Hayot. Hayot kim uchundir baxt timsoli, yana kim uchundir azob-uqubat girdobidir. Rolimiz kabi har birimizning taqdirimiz ham har xil. Kimdir hayotdan baxt topgan, kimdir esa ezilgan. Aslida sinovlarda qaddini bukmaygan, faqat va faqat olg‘a qadam tashlaydiganlarгина hayotda o‘z o‘rnini egallay oladi. Hayotdan xafa, umuman olganda yashashdan umidini uzgan, sahnadagi roli uchun jasorat ila kurashmaydigan odam hayotda o‘z qadr-qimmatini yo‘qotadi. Go‘yoki bu hayot musobaqa yoki bellashuvdir. Unda g‘olib bo‘lsanggina noming tarixda qoladi, mag‘lub bo‘lsang esa... Agar ruhan cho‘ksang, muvaffaqiyatlar sari intilmasang, o‘z-o‘zidan tanazzulga yuz tutasan.

Dinora OTANIYAZOVA,

Muzrabot tumanidagi 56-umumta’lim maktabi o‘quvchisi

U.ALIMOV,

Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i

Yer kerakmi, bemaolol

O‘z ishinig ustasi pixini yorgan bo‘lib chiqsa, achinishingni ham bilmay qolasan kishi. Azizbek (ismlar o‘zgartirilgan) Termiz tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr davlat korxonasida ko‘zga ko‘ringan mutaxassis edi. Hali yosh-u ammo undan maslahat so‘rovchilar ko‘p. Viloyat investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi xodimlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i Navro‘z ham Azizbekdan qolishmaydi.

Ishining hadisini olganlardan. Ammo o‘zaro jinoiy til birliktirib, bir guruhga birlashib, g‘araz va past niyatlarni ko‘zlab, o‘zi yoki boshqa shaxs foydalanishi maqsadida muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatlarni tayyorlab, ularni qalbakilashtirish jinoyatini qasddan sodir etganligini eshitgan borki ishonmadi. Tuhmat deb bosh irg‘aganlar ham bo‘ldi. Qisqasi, Termiz tumanidan bir gektar yer maydonini pullab yuborgan shovvozlar ishni qonuniylashtirish yo‘lini

ham topishdi. Tuman hokimi qarorini qalbakilashtirish ular uchun cho‘t emasdi. Ish xamirdan qil sug‘urgandek oson kechgach, g‘am-g‘ussaga na hojat. Hattoki bir qator imzolarni ham soxtalashtirishdi.

Hattoki eski buyruqlarni ham soxtalashtirishga erishgan ikkovlonning iziga hech kim tusha olmasdi go‘yo. Xatlovdan o‘tkazish yuzasidan tuzilgan ishchi guruhining fuqarolar mulk huquqini tan olish ma’qullanganligi to‘g‘risidagi yig‘ilish bayonnomasidagi hamda

YO‘G‘ALARI

O‘zbekis-
tonga
preferen-
siyalar bosh
tizimi (“GSP+”)
bo‘yicha
benefitsiar
mamlakat
maqomining berilishi,
uning mamlakat
iqtisodiyotidagi
ahamiyati va ushbu tizim
doirasidagi imtiyozlarni
respublikada samarali
qo‘llash bo‘yicha tizimli ishlar
amalga oshirilmoqda.

TIZIM DOIRASIDAGI IMTIYOZLAR

O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi (YEI)ga qator mahsulotlarni imtiyozli shartlarda yetkazib bermoqda. Chunki “GSP+” dasturi YEI bozorlariga rivojlanayotgan mamlakatlardan kelayotgan qishloq xo‘jaligi va boshqa ayrim turdagi mahsulotlar eksportiga berilgan imtiyoz sanaladi.

Unga a‘zo bo‘lgan davlat YEI bozorlariga 3 mingga yaqin mahsulotlarni bojxona to‘lovlarisiz, 3200 turdagi mahsulotlarni esa pasaytirilgan stavkalar bo‘yicha eksport qilish imkoniyatiga ega.

2022-yilda Prezident topshirig‘iga asosan O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan “GSP+” tizimi doirasida mahalliy mahsulotlarning Yevropa bozorlariga eksportini kengaytirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqilib, Surxondaryo viloyat hokimligi va Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan viloyatimizda 84 ta korxonaga xalqaro standartlar hamda sifat tizimlari joriy qilinib, sertifikatlashtirildi. Ushbu yo‘l xaritasi va tarmoq jadvaliga asosan “Texnik jihatdan tartibga solish agentligining Davlat nazorat departamenti” Surxondaryo bo‘limi, “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” DM Surxondaryo filiali va “O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” DM Surxondaryo filiali tomonidan Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xalqaro standartlar talablari asosida ishlab chiqarish, xalqaro standartlarni joriy qilish va sertifikatlashtirish, sifat tizimlarini joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish, xalqaro talablar asosida sinov laboratoriyalar tashkil qilish va modernizatsiya qilish bo‘yicha ishlar tashkil qilindi. Jumladan, ushbu topshiriqlarni amalga oshirishda viloyatdagi ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi 84 ta korxonaga yaqindan ko‘maklashildi. Eksportyor korxonalarga Yevropa Ittifoqi bozorlariga eksport qilishni

*Bolalarning
beg‘ubor
kulgisi bilan
to‘lgan bu
maskanda bir-
biridan shirin
bolalar maza qilib
o‘ynashmoqda.*

Na hayot tashvishlari,
na ro‘zg‘or yuki, na yor-u
do‘stning xiyonati ta‘midan
tatimay, beg‘ubor onlarini

Ammo ilm egalari orasida ham yalqov va plagiatlari ko‘plab uchraydi. Ana shu farq haqiqiy fidoyi va soxta ilmparvarlarning o‘rtasiga to‘siq tashlaydi. Garchi ilm yo‘li qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, aziz umrini shu sohaga bag‘ishlagan insonlar oramizda ko‘plab topiladi. Shunday insonlardan biri, shubhasiz,

jarqo‘rg‘onlik Jonpo‘lat bobo Ermurodovdir. Jonpo‘lat Ermurodov 1947-yil 1-fevral kuni Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Minor” mahallasida oddiy dehqon oilasida tavallud topdi. 1953-yilda T. Shevchenko nomli 19-o‘rta maktabning 1-sinfiga o‘qishga bordi. 1964-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetiga o‘qishga kirib, o‘zbek tili va adabiyoti fani mutaxassisligi bo‘yicha tahsil oldi. 1968-yilda oliy ta‘limni imtiyozli diplom bilan bitirgan Jonpo‘lat Ermurodov o‘zi o‘qigan 19-maktabda 1974-yilgacha yosh avlodga ta‘lim berdi. 1975-1991-yillarda yangi tashkil etilgan Qiziriq (sobiq Lenin yo‘li) tumanida pedagogik faoliyatini davom ettirdi. 1991-yildan to shu kunga qadar

Davlat tomonidan eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadida ajratiladigan standartlar talablari asosida ishlab chiqarishni ta‘minlash maqsadida korxonalarda mavjud me‘yoriy hujjatlar o‘rganib chiqildi hamda korxonalarga xalqaro standartlar joriy qilish bo‘yicha Standartlar instituti bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, 84 ta korxonada faoliyat yuritayotgan 243 nafar xodim va mutaxassislarning standartlashtirish sohasi bo‘yicha malakasi oshirildi.

2023-yilda ham O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan “GSP+” tizimi doirasida mahalliy mahsulotlarning Yevropa bozorlariga eksportini kengaytirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqilib, Surxondaryo viloyat hokimligi va Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan Surxondaryo viloyatida 84 ta korxonaga xalqaro standartlar hamda sifat tizimlarini joriy qilish bo‘yicha tarmoq jadvali ishlab chiqildi.

Tadbirkorlarga qulaylik va imtiyozlar yaratish maqsadida OEKO-TEX, GLOBAL GAP, ISO 9001, ISO 22000 va boshqa xalqaro standartlarini joriy qilish va sertifikatlashtirish uchun murojaatlarni 2023-yildan boshlab

maroq bilan o‘tkaza-yotgan bolalarga qaragan har qanday insonning havasi keladi. Hatto bolalar uchun alohida devorlarga chizilgan multfilm qahramonlarining suratlari ham, bog‘cha hovlisidagi kichik o‘yingoh ham har bir o‘tkinchiga bolalik damlarini eslataveradi. Bolalar orasida yurgan bog‘cha tarbiyachisi soatiga qarab, bolalarni ichkariga olib kirib darsni boshladi. Maktabga bolalarni bir qadar tayyorlash uchun bog‘chada boshlang‘ich saboq berilar, ayniqsa ushbu bog‘cha tarbiyachisi Dilnoza opa bunga alohida ahamiyat berardi. Shu

Jarqo‘rg‘on tumanidagi 24-umumta‘lim maktabida faoliyat yuritib kelmoqda. Jonpo‘lat Ermurodov qalbi uyg‘oq, ma‘rifatparvar bir inson sifatida o‘z faniga sidqidildan yondashib, yosh avlodning adabiyotga mehr qo‘yishida, ma‘naviyatining boyishiga munosib hissa qo‘shdi. Uning shogirdlari bugungi kunda turli xil jabhalarda o‘z sohasining yetuk bilimdoni sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Hatto ko‘pchilik shogirdlari bugun nafaqa gashtini surmoqda. Jonpo‘lat Ermurodov garchi 75 yoshga to‘lgan bo‘lsa-da, hali ham ma‘rifat yo‘lidan chekingani yo‘q. Hali ham maktabga, kutubxonaga oshiqadi. Nimadir mutolaa qiladi, qandaydir yangilik qilishga intiladi. Qahramonimiz 50-60 yillik ish faoliyati mobaynida o‘quvchilarga ilm-ma‘rifat ulashish bilan birgalikda kitobga alohida mehr qo‘ydi. Bugungi kunda Jonpo‘lat Ermurodovning kitob fondi ikki mingdan oshadi. — Jonpo‘lat Ermurodov yaqinda mahallamizda bo‘sh turgan binoda “Ma‘naviyat va ma‘rifat maskani” tashkil etdi. Ushbu maskanni o‘zining 2000 dan ziyod kitob fondi bilan boyitdi. Maskan keng xonada joylashganligi sababli qo‘shimcha ravishda arab, ingliz, rus tili, matematika, IT sohasi, “Zakovat” intellektual klubi, “Assalom hazrat Navoiy, assalom buyuk ustoz!” kabi adabiy to‘garaklar tashkil

“Texnik jihatdan tartibga solish agentligining Davlat nazorat departamenti” Surxondaryo bo‘limi

edi, oxiri, ular orasida tili chuchukkina Madina qo‘l ko‘tardi. Dilnoza opa xursand bo‘lib: — Ana, Madinaning esida bor ekan, undan eshitamiz, keyin sizlarni ham esingizga tushsa kerak... Madinabonu, boshlagin.

Sochlari ikkitalik qilib qistirilgan, bejirim pushti rang ko‘ylak kiygan qizaloq bog‘cha opasining ishorasi bilan o‘z allasini aytishni boshladi; — Ra — mi — don, ramidon, ramidon. — To‘xta, to‘xta, bu nima Madina.

— Axir, o‘zingiz aytdingiz-ku, uxlashdan oldin sizlarga nimalar aytib beriladi deb. — Sen-ga oying shuni aytib berarmidi? — Yo‘q, buni uyimizda yashagan opa oyim o‘qishga ketganida aytib berardi. — Hozirgi kunda bolalarningni boshqaga umuman ishonib bo‘lmay qoldi. Baribir onasi emas-da, bolaga nimalar o‘rgatishni bilmaydi.

Dilnoza opa “Bolaga ham shu reklama qo‘shig‘ini

etmoqchi. Albatta, mahallamizga bu singari ma‘naviyat va ma‘rifatni

targ‘ib qiladigan fidoyi insonlar kerak, — deydi “Jarqo‘rg‘on minorasi” MFY raisi Shuhrat Sattorov. O‘zbekistonda xizmat ko‘ratgan jurnalist, matbuot faxriysi Olimjon Usanov bilan goh-gohida suhbatlashib qolsak, Jarqo‘rg‘onda Jonpo‘lat Ermurodov degan odam bor deb, u kishining yaxshi sifatlarini aytib turadilar. Inchunin, “Surxon tongi” gazetasida Olimjon Usanovning Jonpo‘lat Ermurodov haqidagi “Ezgulik tenglamasi” nomli maqolasi ham chop etilgan edi. Ustoz O. Usanov ushbu maqolasida Jonpo‘lat Ermurodov xarakterining o‘ziga xos qirralarini mohirona ochib bergan.

Nisbatan kekxa avlod vakillari Jonpo‘lat Ermurodovning maktabdagi pedagogik faoliyati haqida zavq-shavq bilan hikoya qilishadi. Uning darslarini hali-hamon hayajon bilan eslashadi. Albatta, bu bejiz emas. O‘z kasbiga sadoqat, mas‘uliyat va burch hissi insonni yuksak-yuksaklarga ko‘taradi. Bu yo‘lda maslaging qanchalik xolis va pok bo‘lsa, parvozning ham shunchalik yuksak bo‘ladi. Fidokorona mehnatlari munosib taqdirlangan Jonpo‘lat Ermurodov 1991-yilda “O‘zbekiston Xalq ta‘limi a‘lochisi” degan yuksak nomga sazovor bo‘ldi. Jonpo‘lat Ermurodov

aytib bera-dimi? — deb ichida achchiqlanardi. So‘ng jahlini bosib: — Madina, o‘zingni oying ham nimadir aytib berarmidi uxlashingdan oldin? — Ha...

— Bo‘lmasa, o‘shani aytib bergin. Faqatgina ona o‘z farzandiga chinakam allani aytishi mumkin. Qani, boshlayqol! Dilnoza opaning gapi tugagach, Madina tayyorlagannamo chuqur nafas olib, alla deb biladigan qo‘shig‘ini boshladi: — Qirolicham, ko‘chaga chiq, qirollarning qiroli keldi...

Bu qo‘shiqni eshitib, ba‘zi bolalar mening oyim ham shuni aytib berardi deb qo‘shiqni davom ettira boshlashdi. Bolalarni eshitib o‘tirgan Dilnoza opaning ko‘nglidan esa “XXI asr allasi shu bo‘lsa kerak” degan fikr o‘tardi.

Kechki ovqatdan so‘ng Nargiza opa doimgidek televizor qarshisiga o‘tirib olib, dugonalarning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini titkilay boshladi. Yonida eri ham telefon bilan ovora. Televizorni esa hech kim



mehribon ota sifatida o‘n nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Turmush o‘rtog‘i Gulizor momo bilan baxtli hayot kechirib, mahalladagi eng namunali oila degan e‘tirofga sazovor bo‘lishmoqda. Jonpo‘lat Ermurodovning bugungi kunda 21 nafar nevara, 7 nafar chevarasi bor. Jonpo‘lat bobo bugun nevara va chevaralar qurshovida. Ilm-ma‘rifat yo‘lida qilingan mehnat aslo e‘tiborsiz qolmas ekan. Kuni kecha Jarqo‘rg‘on madaniyat uyida tuman hokimligining tashabbusi bilan Jonpo‘lat Ermurodov tavalludining 75 yilligi nishonlandi. Tadbirda tumandagi tashkilot va korxonalar vakillari qatnashib, Jonpo‘lat Ermurodovni qizg‘in muborakkob etishdi. Tuman madaniyat uyi san‘atkorlarining kuy va qo‘shiqdari tadbirga yanada fayz bag‘ishladi.

Xolmuhammad TOG‘AYMURODOV

ko‘rayotgani ham yo‘q, o‘ziga o‘zi nimalar deb yotibdi. Bir mahal qo‘lida qog‘oz bilan Madina keldi-yu oyisiga uzatdi: — Oyi, bog‘cha opamiz uyga vazifa berdi. Nargiza opa telefondan ko‘zini uzmay: — Bergan bo‘lsa bajar, qizim, men bandman. Doim o‘zing qilarding-ku uyga vazifalaringni. Nega bu safar menga olib kelding? — Oyi, bog‘cha opam buni menga emas, sizga vazifa qilib berdi. Shuni yodlashingiz kerak ekan, — deb qo‘liga qog‘ozni tutqazdi. Qizining so‘zlaridan ajablangan Nargiza opa qog‘ozga qaradi. Ularning suhbatlari Rustam akaning ham e‘tiborini tortgan edi. Qiziqib xotini qog‘lidagi qog‘ozni oldi. Qog‘ozda alla matni yozilgandi. Qog‘oz ortida esa: “Buni yod oling. Hech bo‘lmasa, keyingi farzandlaringiz alla bilan qo‘shiqning farqiga borishsin” degan jumalalar bor edi.

Mahliyo MADATOVA

“RESPUBLIKA MULK MARKAZI” MCHJ VILOYAT FILIALI BOSHLANG‘ICH BAHOSI BOSQICHMA-BOSQICH OSHIB BORISH TARTIBIDA O‘TKAZILADIGAN OCHIQ AUKSION SAVDOSIGA TAKLIF ETADI!

Savdogo Denov tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi tasarrufidagi, Denov tumani, 8-mart ko‘chasi, 90-A uyda saqlanayotgan, NEKSIYA rususlari, qora (temnosapfir), dvigatel №-G15MF 0483261, kuzov № XWB3L32BD9A056172, shassi raqamsiz, 2009-yilda i/ch, d/r 75 852 NAA, boshlang‘ich bahosi – 10 984 621 so‘m bo‘lgan ta‘mirlal avtotransport vositasi qo‘yilmoqda. Aukcion savdo 2023-yil 17-mart kuni soat 11:00 dan boshlab Denov tumani, 8-mart ko‘chasi, 90-A uy manziliidagi ma‘muriy binoda o‘tkaziladi. Arizalar rasmiy ish kunlari soat 10:00 dan 16:00 gacha qabul qilinadi (13:00 dan 14:00 gacha tushlik). Mazkur mulk 2023-yil 17-mart kuni sotilmagan taqdirda, takroriy savdo 2023-yil 3- va 19-aprel kunlari soat 11:00 da bo‘lib o‘tadi. Arizalarni qabul qilish aukcion o‘tkazilishi belgilangan sanadan bir ish kuni oldin soat 18:00 da to‘xtatiladi. Savdo qo‘libi deb topilgan shaxsga 10 bank ish kun ichida sotuvchi bilan oldi-sotdi shartnomasi tuzish majburiyati yuklatiladi. Sotuvchi tomonidan mulk uchun to‘lovlarini amalga oshirish muddatini oldi-sotdi shartnomasi tuzilganda belgilanadi.

Savdoda ishtirok etish uchun ariza, zakalat puli to‘langanligi haqidagi to‘lov hujjati nusxasi, vakillar uchun belgilangan tartibda ishonchnoma taqdim etiladi. Talabgorlar savdo tashkilotchisi bilan tuziladigan zakalat kelishuviga asosan mulk boshlang‘ich bahosining 5 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda zakalat pulini “Respublika mulk markazi” MCHJ Surxondaryo viloyati filialining “Davir bank” XATB Olmazor fil. Termiz BXMdagi quyidagi hisob-raqamiga to‘lashlari shart: h/r: 20208000300571452019, MFO: 01121, INN: 200933850. Arizalarni qabul qilish manzili: Tirmiz shahri, Taraqqiyot ko‘chasi, 42-A uy. Tel: 99 424-87-57. Guvohnoma 001805.

“RESPUBLIKA MULK MARKAZI” MCHJ

“BEK AZIZ-CLASS” xususiy korxo- nasiga tegishli bo‘lgan dumaloq fuhrari yo‘qolganligi MA‘LUM QILINADI.	“DENOV IRRIGATSIYA YERLARI” f/xga tegishli bo‘lgan muhr va tamg‘a yo‘qolganligi MA‘LUM QILINADI.
Surxondaryo “Uloq ko‘pkari” fede- ratsiyasiga tegishli bo‘lgan guvoh- noma, nizomi, muhr va tamg‘asi yo‘qolganligi MA‘LUM QILINADI.	Viloyat YHXB Termiz shahar RiB tomonidan 2014-yilda Karimov G‘ayratjon To‘xir o‘g‘liga berilgan AC 469409 raqamli haydovchilik guvohnomasi taloni yo‘qolganligi MA‘LUM QILINADI.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchi-larga SUBSIDIYA BERILADI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga har bir xodim uchun 6 oyda BHMning 1,5 baravarida (450 ming so‘m) subsidiya beriladi. Shuningdek, har yili 500 nafargacha nogiron yoshlarga quyidagilar uchun subsidiya ajratiladi: — nodavlat ta‘lim tashkilotlarida kasb-hunarga o‘rgatish, ularda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta‘lim fanlari va xorijiy tillarni o‘rgatish; — tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganlarga asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish uchun.

Subsidiyalar mazkur yo‘nalishlardan bittasi uchun har bir nogironligi bo‘lgan yoshlarning talabiga muvofiq, BHMning 50 baravarigacha miqdorda ajratiladi.

H.NORQOBILOV,

Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi Nodavlat notijorat tashkilotlar bo‘limi boshlig‘i



Dunyo katta o’rmon. Umumiy makonda umumiy va shaxsiy chegarani belgilab olish muhim. Chegara unutilgan joyda mavhumlik boshlanadi. Tafakkur esa a’mol va qiyofamizni, maqsad va maslagimizni, ufqimizni ravshanlashtirib turadi. Ildizini his qilgan inson bugungi manzaralar oldida kelajak og’riqlarini tuyishi tayin. Shoir Eshqobil Shukur bilan aynan umumiy makondagi umumiy va shaxsiy burchlar haqida suhbat qurdik.

ERKINLIK BOSHQA, BOSHBOSHDOLIK BOSHQA; FIKR BOSHQA,

shoir Eshqobil SHUKUR bilan
tilsizlik, ma’naviyatsizlik,
vatansizlik haqida suhbat

MAHMADANAGARCHILIK
BOSHQA...

— **Bozorga borgan odam puliga qarab narsa tanlaydi. Internet foydalanuvchisida bu qonuniyat o’zgacharoq. Axborot ummonida har qanday inson ham g’arq bo’lishi mumkin. Bugungi manzara oldida ko’nglingizdan nimalar o’tadi?**

— Mirzo Bedilning “Ko’rinmagan suvga qo’lingni yuvma” degan misrasi bor. Hozir aynan ko’rinmagan suvga qo’l yuvish urf bo’ldi. Shovqin-suron ko’p, sokin mulohaza yo’q. Gap ko’p, fikr yo’q. Holbuki, bir vagon gapdan ko’ra bir chimdim fikr avlo. Shuning uchun o’ylab-netib o’tirmay, duch kelgan narsaning izidan ko’killab yugurib ketaverish, hovliqmalik, farosatsizlik avjiga chiqaypti. Erkinlik boshqa, boshboshdoqlik boshqa; fikr boshqa, mahmadanagarchilik boshqa. Odamning dunyoga, umuman hamma narsaga munosabatini uning ichki madaniyati belgilab beradi. Aslan madaniyatli odam zulmatdan ham nur axtaradi, bundan mosuvolar esa har narsadan, jumladan, internetdan ham, illat, fisqu fujur topadi.

XX asrda kino dunyoni zabt eta boshlaganida G’arb faylasuflaridan biri “Kino bizni ko’rishga o’rgatdi, lekin qarashdan judo qildi”, degan edi (holbuki, o’sha paytdagi filmlar hozirgidan ko’ra ancha tuzuk bo’lgan). Darhaqiqat, ko’rish va qarash boshqa-boshqa tushuncha. Bir kunda ming-minglab narsalarni ko’ramiz, lekin shundan bor-yo’g’i uch-to’rttasiga qaraymiz. Qarashda dunyoqarash, fikr, ichki munosabat, hatto tuyg’u ishtirok etadi, ko’rishda esa unday emas.

Dunyoning mashhur kinokompaniyalari Gabriel Garsia Markesga “Yuz yil yolg’izlikda” romani asosida badiiy film ishlanishi uchun ruxsat ma’nosidagi bittagina “xo’p” so’zi uchun millionlab dollar va’da qilishganda adib, ehtimol, ayni ko’rish va qarash orasidagi tafovutni hisobga olib, “Yo’q!” degandir.

Quyoshning chiqishi va botishini, dalalarni oppoq qor qoplaganini, osmonda porlagan yulduzlarni odam ko’rsa-yu, hech narsani his qilmasa, bu navbatdagi ko’rlikning bir turi emasmi? Avvalgi zamonda odamlarni qarashga emas, ko’rishga moslashtiradigan vosita bitta kino bo’lgan bo’lsa, bugun ularning hisobi yo’q. Axborot ochko’zligi davrida qarash butunlay inqiroz girdobiga kirdi. Bugun qalbiy sezgi yemirilib boryapti.

Buning ustiga, internetda savodsizlik, ona tilimizga hurmatsizlik avjiga minyapti. Ba’zi buyuklikka da’vogarlarning otini to’g’ri yozishi amri mahol. “Youtube”dagi

bir soat-u qirq daqiqalik ko’rsatuvning sarlavhasiga qarang: “Internetni yog’latgan buxorolik qizaloq oila”.

Sho’rlik jumla, bechora til. Yog’lash bilan yig’lashning farqiga bormagan odam qanday qilib jurnalistlik yo bloggerlik qila oladi? “Buxorolik qizaloq oila” deganini aytmaysizmi? Internet qanday yig’laydi, axir? Afsuski, o’zbek internet segmentida o’zbek tiliga bu kabi hurmatsizliklar son mingta. Avval o’qish-yozishni o’rgan-da, keyin o’rtaga chiq, og’ayni, deydigani odam yo’q.

“Nima bo’pti, shunga ota go’ri qozixonami, baxdaxlik bilan bo’lsa-da, aytadigan gapini amal-taqal qilib tushuntirsa bo’ldi-da”, deguvchilar ham topiladi. Lekin bu hol minglab yoshlarning saviyasini, didini buzishi haqida o’ylashmaydi. Shu o’rinda bir afsonani eslab o’tish joiz. Urushda qahramon jangchi dushmanidan yengiladi, bu mag’lubiyatga taqachi uning oti taqasiga bitta mixni kam urgani sabab bo’ladi. Milliy tafakkurda ham ba’zan bitta kichik xato o’sha urilmay qolgan mixday noxush oqibatga olib kelishi mumkin.

— **Ilgari insonlarda andisha degan muhim parda bo’lgan. Boshqalarga imkon qadar shu parda ortidan ko’rinishga harakat qilingan. Atrofni kuzata turib, zamondoshlarimizning ma’nan yalang’ochlashib, ma’nan qashshoqlashib borayotganiga guvoh bo’lamiz. Sizga ham shunday tuyuladimi?**

— Meni andisha tuyg’usi ko’p o’ylantiradi. Hozir bu tuyg’uning otini chappa qo’yayotganlar bisyor. Biri “qo’rqoq” desa, biri “nochor”, “ojiz” deydi. Ustidan kuladiganlar ham ko’p. Menga andisha eng mazlum tuyg’u bo’lib ko’rinadi. Uning g’amgin holatini his etaman. Odamzot andishaga o’z singlisiga qaraganday avaylab munosabat qilishi kerak. Yo’qsa, ko’p narsadan judo bo’ladi.

Munchalar ma’yussan singlim, Andisha, G’amgin ko’zlaringda marjon-marjon yorish. Lablaring pipirab turar hamisha, Ikki jahon aro bir joning talosh.

Shamoldagi shamday titrab turasan, Ma’suma ko’nglingda otashin ohlar. Bilmam, qay mehrobgga boshing urasan,

Ortingda ta’qiblar, oldingda chohlar. Boshqa tuyg’ular ham xatarda qolgan. Shuning uchun quruqlashish,

soxtalashish, ma’naviy yalang’ochlashish kuchayib boryapti. Qadimgi xitoyliklarning bir nasihati bor: “Ming yil soya bo’lib yurma-da, bir kun odam bo’li!” Insonni inson sifatida tutib turgan kuch tuyg’ulardir. Chunki ular botinimizni xudo bilan bog’lab turadi.

Men bu haqda, ya’ni tuyg’ular halokati haqida she’r yozganman. Unda shunday satrlar bor:

Bu yo’llar yastanar mangu ko’ngilday, Undan o’tib borar qancha kuz, bahor. Borar boshi egik aka-singilday, Ma’yus qo’l ushlashgan Nomus bilan Or.

Unda hodisalar toshib boradi, Kimdir jonin bersa, kimdir olar jon. Bu yo’ldan qaygadir shoshib boradi, Bir gala it quvgan hokisor Vijdon.

Qadrdon tuyg’ular Hayo va lyon, Oqibat, Qanoat, Diyonat, G’urur. Bu ko’hna yo’llardan borurlar qayon, Har birin yuzida hovuch-hovuch nur.

Ko’rib qolganimda ularni har gal, Otamni, onamni, bolam, singlimni, Ko’rganday bo’laman Abad va Azal Yo’llari ustida hayron ko’nglimni.

Ba’zan, yo’q, ba’zan emas, ko’pincha samimiylilik bilan mahmadanagarchilikning farqiga bormay qolyapmiz. Natijada kim ko’p laqillasa, o’shani hammadan aqli deb o’ylayapmiz. G’avsul A’zam “Mening sukutimni anglamagan odam so’zimni anglamaydi”, deb bekorga aytmagan.

— **Davlatimiz rahbarining “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”, degan e’tirofi bor. Bugungi ma’naviyatli inson deganda kimni tushunasiz, uning burchi nimalardan iborat?**

— Men bu borada bobolarim va momolarimni eslayman. Bugun o’ylab qarasam, aslida ular haqiqiy ma’naviyat targ’ibotchilari bo’lishgan ekan. Qoyil qoladigan jihati shundaki, ular ma’naviyat haqida ko’p gapirmay, bizga ma’naviyatni singdirgan, Vatan haqida ma’ruza qilmay, Vatan tuyg’usini singdirgan. Suvga, Yerga, Elga, o’tmishga, hayotga qanday qarash kerakligini, uyat va andisha nima, nomus va or nima, bularni o’zlarining amallari, xatti-harakatlari bilan asta-sekin qon-qonimizga singdirib borgan. Bu donishmandona usul. Bugungi ma’naviyat targ’ibotchisi ma’naviyatni qizil va quruq, baqiroq so’zga aylantirib qo’yishdan saqlanishi kerak. Ma’naviyat uning ichidagi dardi bo’lishi kerak. Dardki, bolasiga vasiyatday o’tadigan dard. Dardki, hayotining ma’nosiga aylangan dard. Ma’naviyat haqida gapirilyotganda uch xil holat ko’rinish beryapti: samimiylilik, befarqlik, mahmadanagarchilik. Hamma gap xuddi shu samimiyyatda.

Yana bir narsani aytib o’tishni istardim. XXI asrga kelib, vatan haqidagi qarashlar ham globalashyapti, jo’nlashyapti.

Daraxtlarning ildizlari o’zlari bilan. Odamlarning ildizlari qabristonda. Ota-bobolari, qarindosh-urug’lari yotgan joyda. Qishlog’im qabristoniga ziyoratga borganimda o’z ildizlarimni his etaman. Bu narsa Vatan tushunchasining muhim bir qismidir.

Bugungi kunda urchib ketayotgan “Qayerda yashash yaxshi bo’lsa, maishat yaxshi bo’lsa, o’sha yer Vataning” degan mulohaza haqida o’ylaganimda shu gaplar ko’nglimga keladi. Buni zamonaviy qarash deguvchilar ham bor. Yo’q, bu zamonaviylik emas, xo’inlik bu!

— **“Boboso’z izidan” kitobingiz ma’naviy bisotimizga katta meros bo’lib qo’shildi. Tilimiz qayg’usi bo’lganki, shu mavzuga qo’l urgansiz. Mustaqillikka erishganimizga o’ttiz yildan oshdi, mamlakatimiz o’nglanib oldi, lekin bu borada qashshoqlashib borishimizga nimalar sabab deb o’ylaysiz? Bugun ham ona tilimiz uchun ko’ngildagidek g’amxo’rlik qilyapmizmi?**

— “Boboso’z izidan”, bu — mening iztirobim. Ancha oldinroq tilimiz g’ariblashib ketayotganini sezganman. Xususan, yoshlar tili quruq va hissiz holga tushib, jo’nlashib qolgan. Na rang bor, na joziba? Ilgariyam aytganman, yana ming marta qaytarib aytishga tayyorman, bitta so’z yo maqolning yarialishi uchun ming yillar kerak bo’lgan, uni yo’qotish uchun esa hozir o’n yil kifoya qiladi. Tanangizga bir o’ylab ko’ring, bir necha ming yillar davomida yig’ilgan xazinalarni bir necha o’n yilda boy berish... bu nima degani? Minglab qadimiy so’z va iboralarni jimgina ko’rga tiqib ketaveramizmi? Ona tili uchun kurash bu — millat uchun kurash, Vatan uchun kurashdir. Ona tilining holati qanday bo’lsa, xalqning ham, Vataning ham holi shunday bo’ladi.

G’arb ta’siri o’zaro suhbatlarimizga ham shiddat bilan kirib keldi. Buni birgina misol bilan ko’rsatib o’tishim mumkin. Masalan, chet el kinolarida, kitoblarida favqulodda holatda ham, bo’lar-bo’lmas vaqtda ham, hatto qoqilib ketganda ham “Jin ursin” iborasini qo’llaydilar. Bizda esa bunday vaqtlarda odatda “Yo, Xudo!” deyishadi. Muhim farqimizni ko’rsatadigan holat bu! Ammo keyingi paytlari kundalik muomalimizda kino va seriallar ta’sirida “jin ursin” iborasi juda faollashib ketdi. Ajddodlarimiz ba’zi iboralarni irim qilib tilga olishmagan. Lekin shu irimda ham madaniyat va niyat bo’lganini payqash qiyin emas. Bunday misollarni yuzlab keltirish mumkin.

— **Adabiyot maydonida ko’pdan beri favqulodda holat oldidagi jimlik hukm surayotganday, ammo hech narsa “sodir” bo’lmayapti. O’quvchining didi o’sib ketdimi yoki chinakam hayratlantiruvchi asarlar yaratilmayaptimi?**

— O’qilmayapti. Yaxshi kitoblar yozilyapti, o’qilmayapti. O’qilmagandan keyin durdona ham ochilmaydi. Bizning yoshligimizda bilmasvoylar ham o’qirdi. Buning ustiga, internet didsizlikni kuchaytirib yubordi. Tilla bilan tezakning farqiga bormaydigan odamlar urchib ketyapti. Xohlagan odam xohlagan tuturiqsiz narsasini

she’r deb, hikoya, roman deb e’lon qilaveradi. Natijada saviyasiz chapakvozar ko’payadi va ular Abdulla Oripov bilan jo’qivoyning farqiga borolmaydi. Ikkinisi bitta shohsupada deb bilish farosatning uyi kuygani emasmi? Katta adabiyotning paydo bo’lishi uchun katta o’quvchilar ham kerak.

— **Adabiyotga katta ovoz bilan kirib kelgan iste’dodlar keyinchalik oy botgandek dunyoga singib ketyapti. Yo’lning oxirigacha borishga ularga nima xalal beryapti yoki ustoz ijodkorlar bajargan qaysi shartlarni uddalolmayapti?**

— Eng qiyini shu — yo’lning oxirigacha borish. 1980-yillarda biz 50 dan ortiq ijodkor yoshlar hayqirib maydonga kirib kelganmiz. Bugun qarasang, 4-5 kishi qolibdi. Pushkin aytganiday:

“Har xil yo’llar bilan ketdik biz bu hayotda”. Umr bo’yi davom etadigan jarayon bu. Har kun ishga borib ishlab kelishday faqat aqlning o’zi bilan bitadigan ish emas. Ko’ngil va muhabbat bilan bog’liq jarayon. Iste’dodning joni — muhabbatdir!

— **Barcha san’at turlari bitta ildizga — folklorga borib birlashadi. Xalq og’zaki ijodining bugungi qadri, o’rni Sizni qoniqtiradimi? Folkloresiz hayot nimalardan mahrum bo’ladi?**

— Suv uch xil shaklda: suyuq, bug’ va muz ko’rinishida namoyon bo’ladi. Uch xil holatida ham go’zaldir. Menimcha, bunga sabab suvning mohiyati go’zalligidir. Hamma narsada mohiyat go’zal bo’ldimi, bas, har qanday tarzda go’zal bo’ladi. Rayhonning hatto o’ligi ham, chirigi ham xushbo’y, chunki u jannati deb yozganimda ayni shuni nazarda tutganman.

Xalq og’zaki ijodi ham shu suvga o’xshaydi. Hamisha, har qanday holatda mohiyati go’zal. Folkloresiz hayot ildizsiz daraxtday gap. Buni birgina alla misolida ko’rishimiz mumkin. Beshikda singdirilgan alla odamga tobutiga qadar ruhan hamrohlik qiladi.

— **Atrofdagi muammo, og’riqlar ijodkorning qalbini uyg’otib turadi. Bugungi qalam ahlining a’moli nimalar bo’lishi kerak?**

Hammaning ko’zi toshga aylanganda ham, shoirning ko’zida yosh turadi. Bu mening keyingi yillarda kelgan xulosalarimdan biri. Aslida ham shunday bo’lishi kerak. Siz aytayotgan a’mollar o’sha ko’zdagi yosh bilan, dard va iztirob, inson va dunyo muammolari bilan bog’liq. Rumiy aytganiday: “Dard bo’lmasa, Iso tug’ilmas edi”. Suhbatimizni Bedil bilan boshladik, Bedil bilan tugataylik. Mirzo Bedil yozgan: “Bug’doydan so’radim: Nega hamisha ko’zing yumuq? Bug’doy dedi: Ne qilayki, ko’zimni ochsam, qoshimda tegirmon ko’rinsa...” Bu hikmat meni mudom o’ylantiradi. Dunyoning o’zi shu-da! Men ayni daqiqalarda yumuq ko’zlar va ularning qarshisida turgan buyuk tegirmonni tasavvur qilyapman.

Nargiza ODINAYEVA